



**IQTISODIY TRANSFORMATSIYA SHAROITIDA QULAY
INVESTITSION MUHITNI SHAKLLANTIRISH VA JAHON MOLIYA
BOZORIDAN REAL SEKTORGA INVESTITSIYALARNI JALB QILISH**

Xurshida Shaymatova Sabirjanovna

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti

Iqtisodiyot ta'lim yo'nalishi

1-bosqich magistranti

xurshidashaymatova803@gmail.com

Annotatsiya: Iqtisodiy transformatsiya sharoitida qulay investitsion muhitni shakllantirish hamda jahon moliya bozoridan real sektorga investitsiyalarni samarali jalb etish mamlakat iqtisodiy taraqqiyotining muhim omillaridan biri hisoblanadi. Bugungi kunda rivojlangan davlatlar tajribasi shuni ko'rsatadiki, ularning yuqori iqtisodiy natijalarga erishishida moliya bozori hal qiluvchi rol o'ynagan. Xususan, moliya bozori orqali real sektorni moliyaviy qo'llab-quvvatlash, bo'sh pul resurslarini ishlab chiqarishga yo'naltirish, yangi tarmoqlarni rivojlantirish, davlat byudjeti taqchilligini inflyatsiyaga olib kelmaydigan manbalar hisobidan qoplash hamda aholi daromadlarini moliyaviy instrumentlar orqali oshirish kabi jihatlar ustuvor ahamiyat kasb etadi. Shu bilan birga, jahon iqtisodiyotida kuzatilayotgan zamonaviy o'zgarishlar investitsiyalardan oqilona foydalanish bilan bevosita bog'liq bo'lib, bu jarayon xalqaro kapital oqimlarining kengayishi va davlatlar o'rtasidagi iqtisodiy aloqalarning chuqurlashuvi bilan izohlanadi.

Kalit so'zlar: Xalqaro moliya bozori, portfel, fond birjalari, innovatsiya, innovatsiya faoliyati, qimmatli qog'ozlar, tashkiliy boshqarish, ijtimoiy sohalar, milliy iqtisodiyot, xo'jalik subyektlari, kapital, fond bozori, investitsiyalar, aholining shaxsiy jamg'armalari.



Abstract: In the context of economic transformation, the formation of a favorable investment climate and the effective attraction of investments from the world financial market to the real sector are one of the important factors of the country's economic development. The experience of developed countries today shows that the financial market has played a decisive role in their achievement of high economic results. In particular, such aspects as financial support for the real sector through the financial market, directing free money resources to production, developing new industries, covering the state budget deficit from sources that do not lead to inflation, and increasing the income of the population through financial instruments are of priority importance. At the same time, modern changes observed in the world economy are directly related to the rational use of investments, and this process is explained by the expansion of international capital flows and the deepening of economic ties between countries.

Keywords: International financial market, portfolio, stock exchanges, innovation, innovation activity, securities, organizational management, social sectors, national economy, economic entities, capital, stock market, investments, personal savings of the population.

Аннотация: В контексте экономических преобразований формирование благоприятного инвестиционного климата и эффективное привлечение инвестиций с мирового финансового рынка в реальный сектор являются одними из важных факторов экономического развития страны. Опыт развитых стран сегодня показывает, что финансовый рынок сыграл решающую роль в достижении ими высоких экономических результатов. В частности, первостепенное значение имеют такие аспекты, как финансовая поддержка реального сектора через финансовый рынок, направление свободных денежных ресурсов в производство, развитие новых отраслей, покрытие дефицита государственного бюджета из источников, не приводящих к инфляции, и повышение доходов населения за счет финансовых



инструментов. При этом современные изменения, наблюдаемые в мировой экономике, напрямую связаны с рациональным использованием инвестиций, и этот процесс объясняется расширением международных потоков капитала и углублением экономических связей между странами.

Ключевые слова: Международный финансовый рынок, портфель, фондовые биржи, инновации, инновационная деятельность, ценные бумаги, организационное управление, социальные секторы, национальная экономика, экономические субъекты, капитал, фондовый рынок, инвестиции, личные сбережения населения.


Bugungi kunda mamlakat iqtisodiyotini yanada rivojlantirishda moliya bozoridan jalb qilinayotgan investitsiyalarning hissasi juda yuqori ekanligi barchamizga sir emas. Buni biz rivojlangan davlatlar tajribasidan ham ko‘rishimiz mumkin. Rivojlangan mamlakatlarning iqtisodiy taraqqiyotida va bugungi darajaga erishishlarida moliya bozori shak-shubhasiz muhim ahamiyat kasb etgan. Bunda real sektorni moliyaviy ta‘minlash, bo‘sh pul mablag‘larini ishlab chiqarishga yo‘naltirish, yangi sohalarni o‘zlashtirish, davlat byudjeti defitsitini noinflyatsion yo‘llar bilan mablag‘ jalb qilish orqali qoplash, aholi daromadlarini moliyaviy aktivlar orqali oshirish kabilar alohida ahamiyat kasb etmoqda. Shu bilan bir qatorda ta‘kidlashimiz mumkinki, jahon iqtisodiyotidagi bugungi global o‘zgarishlar va rivojlanishlar investitsiyalardan samarali foydalanish natijasi bo‘lib, bu o‘z navbatida, davlatlar o‘rtasidagi xalqaro iqtisodiy munosabatlarning yuksalishi xalqaro kapital harakatining yo‘nalishlari va faollashuviga muvofiq yuzaga kelmoqda. Xalqaro kapital harakati, nafaqat, alohida davlatlar iqtisodiyoti, balki, u joylashgan mintaqa iqtisodiyoti, shuningdek, jahon iqtisodiyotining bugungi rivoji va istiqboli uchun muhim ahamiyat kasb etuvchi omil hisoblanadi.

Xorijiy davlatlar tajribalarini o‘rgangan holda mamlakatimizda ham so‘nggi yillarda real sektorga investitsiyalarni jalb qilish mexanizmlarini rivojlantirishga alohida ahamiyat berilmoqda. Ammo, aksiyadorlik jamiyatlarida davlat ulushining



yuqoriligi, aksiya bozorining likvidligi past darajadali, erkin muomalada aksiyalar deyarli mavjud emasligi, korporativ boshqaruvning past darajadali kabi bir qancha muammolar aksiyadorlik jamiyatlarini korporativ qimmatli qog'ozlar vositasida moliyalashtirish holatiga salbiy ta'sir etmoqda.


Jumladan, yoqilg'i-energetika, neft-gaz, kimyo, transport va bank sohalarida davlat ishtiroki yuqori darajada saqlanib qolayotgani ularni bozor mexanizmlari asosida rivojlantirish, investitsiyalar jalb etishga to'sqinlik qilmoqda". Bizga ma'lumki, iqtisodiyotning real sektori ulgurji va chakana savdo, energetika, iste'mol tovarlari ishlab chiqarish, sanoat ishlab-chiqarish, transport va logistika, neft va gaz tarmog'i, metallurgiya, tibbiyot va farmatsevtika, tog'-kon sanoati, telekommunikatsiya va informatsion texnologiyalar, turizm va mehmonxona biznesi, qishloq xo'jaligi singari yirik tarmoqlarni o'z ichiga oladi.



1-rasm. Iqtisodiyot real sektorining tarkibi



Faoliyat yuritayotgan korxonalar va tashkilotlar soni (birlikda)



2-rasm. Korxonalar va tashkilotlarning tarmoqlar bo'yicha taqsimlanishi

O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan iqtisodiyot real sektori korxonalarining iqtisodiy holati va istiqboldagi kutilmalarini o'rganish yuzasidan o'tkazilgan o'rganishlar natijasiga ko'ra 2025-yil 1-noyabr holatiga ko'ra, respublikada faoliyat yuritayotgan korxonalar va tashkilotlar soni 465,9 mingtani tashkil etdi. Shundan 395,8 mingtasi yoki 84,9 foizi kichik korxonalar va mikrofirmalar hissasiga to'g'ri keldi.

1-jadval

Faoliyat yuritayotgan korxonalar va tashkilotlar soni (birlikda)

1 noyabr holatiga

| Yil | Korxonalar va tashkilotlar | shundan: | |
|------|----------------------------|--------------------------|---------------------------|
| | | tadbirkorlik subyektlari | shundan: |
| | | | kichik biznes subyektlari |
| 2025 | 465 944 | 399 811 | 395 777 |
| 2024 | 469 409 | 405 978 | 402 209 |
| 2023 | 490 356 | 426 270 | 422 586 |
| 2022 | 581 046 | 516 274 | 512 637 |
| 2021 | 540 098 | 476 750 | 473 705 |



2-jadval

Korxonalar va tashkilotlarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ma'lumotlar

| Hududlar | Korxonalar va tashkilotlar | shundan: | |
|------------------------|----------------------------|--------------------------|---------------------------|
| | | tadbirkorlik subyektlari | shundan: |
| | | | kichik biznes subyektlari |
| Qoraqalpog'iston Resp. | 23 465 | 19 424 | 19 329 |
| Andijon viloyati | 26 309 | 20 997 | 20 857 |
| Buxoro viloyati | 28 456 | 24 743 | 24 601 |
| Jizzax viloyati | 18 053 | 14 952 | 14 859 |
| Qashqadaryo viloyati | 29 835 | 24 631 | 24 451 |
| Navoiy viloyati | 20 682 | 18 208 | 18 112 |
| Namangan viloyati | 26 473 | 22 087 | 21 920 |
| Samarqand viloyati | 40 147 | 33 986 | 33 760 |
| Surxondaryo viloyati | 24 336 | 20 253 | 20 165 |
| Sirdaryo viloyati | 11 780 | 9 711 | 9 638 |
| Toshkent viloyati | 45 197 | 39 424 | 39 047 |
| Farg'ona viloyati | 37 466 | 31 138 | 30 913 |
| Xorazm viloyati | 26 801 | 23 446 | 23 309 |
| Toshkent shahri | 106 944 | 96 811 | 94 816 |

Hududlar bo'yicha faoliyat yuritayotgan korxonalar va tashkilotlarning jamiga nisbatan yuqori ulushini Toshkent shahri (23 foiz), Toshkent (9,7 foiz), Samarqand (8,6 foiz), Farg'ona (8,0 foiz) va Qashqadaryo (6,4 foiz) viloyatlari tashkil etadi. Iqtisodiyotning real sektorlari faoliyati natijasida mamlakatning yalpi ichki mahsuloti shakllanishi hamda real sektor korxonalarini xalqaro moliya bozorlari orqali investitsiya jalb qilish orqali rivojlantirish mamlakatimiz iqtisodiyotini yanada rivojlanishiga olib keladi.

3-jadval

Xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar va tashkilotlar to'g'risida ma'lumotlar




| Hududlar | Jami: | shundan: | |
|------------------------------------|--------|--------------------|--------------------|
| | | qo'shma korxonalar | xorijiy korxonalar |
| O'zbekiston Respublikasi | 17 595 | 4 204 | 13 391 |
| Qoraqalpog'iston Resp. viloyatlar: | 210 | 75 | 135 |
| Andijon viloyati | 395 | 131 | 264 |
| Buxoro viloyati | 364 | 126 | 238 |
| Jizzax viloyati | 243 | 103 | 140 |
| Qashqadaryo viloyati | 161 | 80 | 81 |
| Navoiy viloyati | 300 | 110 | 190 |
| Namangan viloyati | 256 | 101 | 155 |
| Samarqand viloyati | 658 | 266 | 392 |
| Surxondaryo viloyati | 486 | 64 | 422 |
| Sirdaryo viloyati | 266 | 88 | 178 |
| Toshkent viloyati | 2 253 | 476 | 1 777 |
| Farg'ona viloyati | 607 | 221 | 386 |
| Xorazm viloyati | 195 | 65 | 130 |
| Toshkent shahri | 11 201 | 2 298 | 8 903 |

Hududlar kesimida xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi faoliyat yuritayotgan korxonalarining jami soniga nisbatan eng katta ulushi Toshkent shahriga 63,7 foiz, viloyatlar orasida esa Toshkent – 12,8 foiz, Samarqand – 3,7 foiz va Farg'onada 3,4 foizga to'g'ri keladi.

O'zbekistonda oxirgi besh yilda xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi faoliyat yuritayotgan korxonalarining umumiy soni 1,9 barobarga, shu bilan birga xorijiy korxonalarining ulushi (jamiga nisbatan) 54,1 foizdan 76,1 foizgacha oshgan.

2025-yil 1-noyabr holatiga xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi faoliyat yuritayotgan 17 595 ta korxonalardan 4 204 tasi qo'shma korxonalar va 13 391 tasi xorijiy korxonalar hissasiga to'g'ri keldi.



3-rasm. Xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar va tashkilotlar

Xulosa qilib aytganda, iqtisodiy transformatsiya sharoitida qulay investitsion muhitni shakllantirish mamlakatning barqaror iqtisodiy o'sishini ta'minlashda hal qiluvchi omillardan biri hisoblanadi. Investitsion jozibadorlikni oshirish uchun institutsional islohotlarni chuqurlashtirish, huquqiy kafolatlarni mustahkamlash, moliyaviy bozor infratuzilmasini rivojlantirish hamda shaffof va prognoz qilinadigan iqtisodiy siyosatni yuritish muhim ahamiyat kasb etadi.

Shu bilan birga, jahon moliya bozoridan real sektorga investitsiyalarni jalb qilish uchun mamlakatda makroiqtisodiy barqarorlikni ta'minlash, risklarni kamaytirish, investorlar uchun qulay shart-sharoitlar yaratish va zamonaviy moliyaviy instrumentlardan samarali foydalanish zarur. Xorijiy investitsiyalarni jalb etish nafaqat ishlab chiqarish hajmini oshirish, balki innovatsiyalarni joriy etish, yangi ish o'rinlarini yaratish va eksport salohiyatini kengaytirishga xizmat qiladi.

Umuman olganda, investitsion muhitni yaxshilash va xalqaro kapital oqimini real sektorga yo'naltirish iqtisodiy transformatsiyaning muvaffaqiyatli amalga oshirilishini ta'minlaydi hamda milliy iqtisodiyotning raqobatbardoshligini yangi bosqichga olib chiqadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 13-apreldagi "Kapital bozorini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-6207-son



Farmoni. Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 21.04.2022 y., 06/22/113/0330-son.

2. Qudratov Sh.G'. O'zbekiston Respublikasi fond bozori va uning rivojlanishiga ta'sir qilayotgan asosiy muammolar. Mejdunarodniy nauchniy jurnal № 2 (100), chast 2 «Nauchniy impuls» sentyabr, 2022. S. 688.

3. Sultonov Sh.N. O'zbekistonda fond bozorini rivojlantirish yo'llari. Iqtisodiyot va ta'lim / 2022-yil 5-son.

4. Nurmuhamedov A.A. Nurmuhamedova B.I. Fond bozori rivojlanishining o'ziga xos xususiyatlari va iqtisodiy o'sish bilan bog'liqligi. "Skienke and Edukation" Skientifik Journal. / ISSN 2181-0842 March 2023 / Volume 4 Issue 3

5. www.stat.uz – O'zbekiston Respublikasi Statistika qo'mitasining rasmiy sayti.